# Maktabgacha ta'lim metodikasi

THE METHODOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION / МЕТОДИКА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

5/2018



Muhammadnur Xolmatov,
Uchtepa tumanidagi 334-MTM
tarbiyalanuvchisi

## USHBU SONDA:


QISQA MUDDATLI GURUH bolani ruhan va aqlan maktab ta'limiga tayyorlaydi 8

ESHITISH IMKONI CHEKLANGAN BOLA ta'lim olish imkonidan cheklangan emas 18

TURK ANAOKULIGA SAYOHAT 22

ПРОКАЗНИЧЕСТВА ТЕТУШКИ ТЛИ 30

# Maktabgacha ta'lim metodikasi

THE METHODOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION / МЕТОДИКА ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ





JURNAL 2018-YIL YANVAR OYIDAN CHIQA BOSHLAGAN

5-SON / 2018-YIL / MAY

MUASSIS:
**O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi**



Bosh muharrir:
Nasiba ERXONOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Agrepina SHIN
Sobitxon TURG'UNOV
Maqsudjon YO'LDOSHEV
Yelena TEN
Rohatoy SAFAROVA
Komil ESHPO'LATOV

Jurnal maketi tahririyatning matbaa bo'limida tayyorlandi
Navbatchi muharrir:
Dilnoza NOMOZOVA
Dizayner:
Ma'mur AHLIDDINOV
Sahifalovchi:
Elyor QO'SHSHAYEV
Suratlar muallifi:
Burhon RIZOQULOV



*Jurnal O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida 0947 raqam bilan 18.01.2018-yilda ro'yxatga olingan.*

Tahririyat manzili:
*100070, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 64-uy.*
*Telefon: (0371) 215-51-28,*
*e-mail: mtmjurnal@inbox.uz*

Bosmaxonaga 23.05.2018-yilda topshirildi.
Ofset usulida chop etildi.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
Shartli bosma tabog'i 2.
«Times New Roman» garniturasi. 11,12 kegl.
«KOLORPAK» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: 100005, Toshkent shahri, Elbek ko'chasi, 8-uy.
Buyurtma № 932 Adadi 20590 nusxa.
Bahosi shartnoma asosida.



Tahririyat nuqtai nazariga mos kelmagan maqolalar tahlil etilmaydi va egalariga qaytarilmaydi.
«Maktabgacha ta'lim metodikasi» jurnalidan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.


## MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ


**Jarayon**
D.NOMOZOVA. Bog'chaga onlayn qabul afzalliklari va muammolar....2

**1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni**
R.NURADDINOVA, Z.XUDOYBERGANOVA. Bolalarga bering dunyoni! ....4

**Xabarchi**
M.ERKINOVA, D.QAMBAROVA. Innovatsiya va istiqbol....6

**Tajriba**
M.GAPPAROVA. MTM e'tirofga qanday erishadi?....7

**Davr talabi**
G.ISMATOVA. Qisqa muddatli guruh bolani ruhan va aqlan maktab ta'limiga tayyorlaydi....8

**Qurish-yasash**
F.TOLIBOVA. Yasash orqali yaratamiz....10

**Didaktik o'yin**
M.ALIQULOVA. «Mehmonlarni kutib olamiz»....11

**Mashg'ulot ishlanmasi**
G.FAXRIDDINOVA. Ilk matematik tasavvurlar bolaning intellektini oshirishga xizmat qiladi....12

**Psixolog minbari**
N.ERMAMATOVA. O'z-o'ziga bo'lgan ishonch bolalikdan shakllantiriladi....14

**Kitob javoniga**
Z.RO'ZIYEVA. Jismoniy mashqlarni o'yin orqali o'rganamiz....15

**Mutolaa**
A.OBIDJON. Soxta «amaki»....16

**Maxsus ta'lim**
M.AHLIDDINOV. Eshitish imkoni cheklangan bola ta'lim olish imkonidan cheklangan emas....18

**Ilmiy hudud**
SH.XO'JAMBERDIYEVA. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi....20

**Xorijda ta'lim**
N.ERGASHEVA. Turk anaokuliga sayohat....22

**Salomatlik**
F.IBROHIMOVA. MTM suv havzasi qanday talablarga javob berishi lozim?....23

**Yangilanish**
F.XOLMURODOVA. Maqsadimiz: qulay sharoit, sifatli ta'lim, cheksiz g'amxo'rlik....24

**Опыт**
З.УМУРЗАКОВА. Все профессии нужны, все профессии важны....25

**Территория науки**
Ш.ДИЯРОВА. Гендерный подход в воспитании детей дошкольного возраста....26

**Разработка занятия**
Ф.РАИМБЕКОВА. Развитие сенсомоторных способностей детей....28

**Сказка**
Г.КАМИЛОВА. Проказничества тетушки тли....30

**Happy English**
M.UBAYDULLAYEVA. Wild animals. Дикие животные. Yovvoyi hayvonlar....32

# MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ERKIN VOHIDOV IJODINING O'RGANILISHI



**Shaxnoza XO'JAMBERDIYEVA,**
**Namangan davlat universiteti**
**o'qituvchisi**

Annotatsiya

*Ushbu maqolada shoir Erkin Vohidov ijodiga mansub bolalarga xos she'rlar ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'zlar:** *shoir, Vatan, ona yurt, tarix, allomalar, ona tuproq, faxr.*

Аннотация

*В данной статье рассмотрены некоторые стихотворения поэта Эркина Вахидова, в которых он восхвалял патриотизм.*

**Ключевые слова:** *поэт, Родина, родной край, история, мыслители, родная земля, гордость.*

*Annotation*

*In this article considered some poems of the poet, Erkin Vohidov, in which he lauded patriotism.*

**Key words:** *poet, Motherland, native land, history, thinkers, pride.*

Bolalarning Vatan taqdiri, el-yurt istiqboli yo'lida yashab, kurashuvchi, salohiyatli, ilmli, keng dunyoqarashga va mustaqil fikrga ega bo'lib voyaga yetishlarida ta'lim-tarbiya, san'at va adabiyotning o'rni benihoya kattadir. Xususan, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari ma'naviy olamini yuksaltirishda xalq shoirlari, adiblar hayot yo'li, ijodini o'rgatish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov qalamiga mansub Vatan haqidagi she'rlarni maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachilar o'qib, tahlil qilishi bolalarda Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Zotan, ma'naviy tarbiyaning muhim omillaridan birini badiiy adabiyot tashkil etadi. Erkin Vohidovning xalqona va sodda she'rlarini bolalarga o'rgatish ular ma'naviyatini yuksaltirish bilan birga ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishiladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida Xalq shoiri Erkin Vohidov ijodidan «Olma», «O'rik», «Gilos» kabi sherlarini bolalar o'rganishlari uchun ularni fikrlashga, she'r matni, mazmunini ongli tushunib, obrazli ifodalar manolarini anglashlariga xizmat qiluvchi savol-topshiriqlardan hamda ilg'or ta'lim usullaridan foydalanish yo'llari yoritib berilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.

*Masalan:*

Men sizlarning olmangiz,
Xomligimda olmangiz,
Nortojiga o'xshab so'ng,
Voy qornim deb qolmangiz.

* * * * *

Marjon-mardon yumaloq,
Yaproqlari shapaloq,
Qizil, sariq, yashil, oq,
Eb ko'rmasdan o'ylab boq.
Sen ayt-chi,qizi Gulsum,
Bumi dadajon uzum...



Maktabgacha ta'lim muassasalarida E.Vohidovning «Olma», «Gilos» she'rlari o'qib o'rganilsa, bu she'rlarning bolalar fantaziyasiga, 5-6 yoshli bolalar ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish xususiyati e'tiborga olinishi kerak. She'r sodda badiiy tilda bitilgan obrazlilik va jonlantirish, o'xshatish, sifatlash kabi tasviriy vositalar qo'llanganligi sababli olma va gilos bolajon bilan go'yo so'zlashadi, xomligida uzmaslikka, Nortojiga o'xshab «Voy, qornim deb qolmangiz!» – deya noxush holatga tushib qolmaslikka chaqiradi. Gilos ham o'z sifatlarini birma-bir «so'zlar» ekan, bolalarni u kabi totli, mazasi bol bo'lishga go'yo chorlaydi.

Gilosning: «Topsang qo'shalog'imni, qulog'ingga taqib ol», deya murojaat etishi ham kichik yoshdagi bolalar tasavvurlarini boyitadi, obrazli fikrlashga o'rgatadi.

Ta'lim bosqichlarida muayyan shoir yoki yozuvchi hayoti bilan ijodini o'rgatish masalasi bugungi ta'lim falsafasiga xos yondashuvlar asosida o'quvchi shaxsini har jihatdan rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilsa, ta'lim va tarbiya samaradorligi ta'minlanadi.

Nafaqat Erkin Vohidov, balki barcha ijodkorlar hayoti va ijodini ta'lim bosqichlararo uzviylik hamda uzluksizlik tamoyili asosida, konstruktiv-kognitiv yondashuvga asoslanib o'rgatish bugungi adabiy ta'limga xos yetakchi xususiyatga aylangani uchun ta'lim samaradorligi kafolatlanadi.

Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan interfaol usullar yordamida E.Vohidov ijodi namunalarini o'rgatish natijasida tarbiyalanuvchi faolligi oshadi, nutqi rivojlanadi, ma'naviy-axloqiy jihatdan kamol topadi.

Erkin Vohidov ijodi namunalarini maktabgacha ta'limdan boshlab o'rgatishda ta'lim bosqichlariga xos xususiyatlar, bolaning intellektual darajasi, ehtiyojlari ham e'tiborga olinishi lozim.

Xalq shoiri E.Vohidov ijodi namunalaridan maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tadigan tadbirlar, bayram ertaliklarida foydalanish bolani axloqiy tarbiyalash, yuksak insoniy tuyg'ularni shakllanishida ta'lim va tarbiya uzviyligini ta'minlaydi.